



## SHAXS E'TIQODINI SHAKLLANTIRISH BORASIDAGI PEDAGOGIK TAHLILLARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

*Oripova N.X.*

*Qarshi davlat universiteti*

*Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.d., prof.*

**Tayanch so'zlar:** shaxs, e'tiqod, ta'lim-tarbiya, pedagogik, psixologik, tizim, intellektual, sobitqadamlik, dadillik.

**Ключевые слова:** личность, вера, образование, педагогическое, психологическое, системное, интеллектуальное, настойчивость, мужество.

**Key words:** personality, faith, education, pedagogical, psychological, systemic, intellectual, perseverance, courage.

Kishilik taraqqiyotining turli davrlarida ustoz va murabbiylar oldiga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati, e'tiqodini shakllantirish muammosining turli yo'nalishlari, xususiyatlari yuzasidan ilmiy asoslangan g'oyalar, fikrlar, qarash va yondashuvlar bayon etilgan. Jumladan, zamonaviy pedagogika fanining ibtidosi bo'lgan xalq pedagogikasi va eng qadimgi milliy-ma'naviy qadriyatlar – "Avesto", Qur'oni karim va Hadisi sharifda, Markaziy Osiyo allomalari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy hamda jadid ma'rifatparvarlari – Abdulla Avloniy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori kabilarning amalga oshirgan ishlari, yozgan darsliklari, risolalari, ilmiy maqolalarida ilmga e'tiqod, xususan, pedagogik kasbga e'tiqod muammosiga alohida e'tibor qaratilgan.

Keyingi davrlarda ham ushbu muammoning turli yo'nalishlarini tadqiq etish masalasi bilan mahalliy olimlar: M. Ochilov, R. X. Djurayev, T.G'afforova, R. Shodiyev, S.Qahhorov, B.Adizov D. Himmataliyev, Sh. Nurullayevalar shug'ullanishgan. Pedagogik kasbining psixologik muammolari va uning o'ziga xos yechimini taklif etishda M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, A.Jabborovlarning izlanishlari diqqatga sazovor.


Oliy ta'lim tizimida shaxs e'tiqodini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda insonparvarlik e'tiqodi muammosi MDH



mamlakatlari olimlaridan S.A. Gogunova, R.B. Rogachyov, E.A. Majayeva, N.N. Yuryeva, S.Y. Borodulina, R.L. Valdes, V.A. Slastenin, V.I. Gracheva kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Kvintilian, Y.A. Komenskiy, Djon Lokk, I.G. Pestalotssi, L. Disterverg va so'nggi yillarda Aleks Mur, A.M. Malkoln, D. Dikson, J. Gaillardlar pedagoglik kasbini tashkil etishning ilmiy va amaliy jihatlarini yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Demak, mavjud manbalar tahlili va amaliy kuzatishlarga ko'ra shaxsda e'tiqod shakllanganligi bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi hamda e'tiqod shakllanishida boshqa tarbiya maskanlari qatori ta'lim muassasalari oldiga qator vazifalar yuklanadi. Shaxsda e'tiqod shakllanganligining ko'rinishlari va bu borada ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilayotgan vazifalar quyidagi jadvalda aks etgan.

**1-jadval**



Har uchala ko'rinishdagi e'tiqod ma'lum bir asosga egaligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, bu yerda bilim, intellekt, xulosa va tajriba shaxs e'tiqodining mazmunini tashkil etadi. Aslida shaxsda e'tiqod bilimlarga asoslangan holda shakllanadi. Biroq, ijtimoiy hayotda ko'pchilik shaxslarda e'tiqod tajriba va hayotiy xulosalarga asoslanib tarkib topadi. Shuningdek, ayrim shaxslarda e'tiqod intellektual tuyg'ularga ko'ra namoyon bo'ladi. Bunday shaxslarda voqea-hodisalarga nisbatan teran mushohada yuritish, mantiqiy fikrlash ustun bo'ladi. Ular aql kuchiga tayanib hayotda o'z e'tiqodlariga ega bo'lib boradilar. Bunday shaxslarning qarashlarida boshqalarga ishonch, qat'iyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, talabchanlik kabi xislatlar kuzatiladi.

Ushbu fikrlarga asoslanib, shaxsdagi e'tiqodning mazmuni va ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin.

**2-jadval**

**E'tiqodning mazmuni va ahamiyati**

<b>E'tiqodning mazmuni</b>	shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, voqea-hodisalar, jarayonlar va shaxslarga oid bilimlar asosida shakllangan qarashlari. shaxsning o'z qadriyatlarini, ideallari, qiziqishlari, xulq-atvori bilan bog'liq qarashlari va ishonchi. shaxs faoliyatining qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar mazkur jarayon haqidagi to'plangan bilimlari, tajribasi, ishonchi va sadoqati.
----------------------------	---



<b>Shaxs e'tiqodning ahamiyati</b>	<p>e'tiqod shaxsning ichki imkoniyatlari, individual xususiyati, motiv va qarashlarining namoyon bo'lishi va uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy erkinligi, qadriyatlarini, maqsad va faoliyatdagi harakatini ifoda etishida yordam beradi.</p> <p>e'tiqod shaxsni boshqalarning manfaatlarini hurmat qilishga, axloqiy meyorlarga amal qilishga, o'z xatti-harakatiga mas'uliyat bilan yondoshishga da'vat etadi.</p> <p>e'tiqod shaxsda sobitqadamlik, dadillik, qat'iyatlilik, o'ziga bo'lgan ishonch, tashqi ta'sir va g'oyalarga berilmaslik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi.</p> <p>shaxs e'tiqodi uning vatan, xalq, ota-ona va yaqinlari, do'st va ustozlari oldidagi burchi, sadoqati, vafodorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.</p> <p>e'tiqodning mustahkamligi shaxsning bir kasbda uzoq va samarali, halol mehnat qilishiga hamda kasbini hayotining ajralmas bo'lagi sifatida idrok etishiga yordam beradi.</p> <p>sog'lom e'tiqodli shaxslarda dunyoqarash, ijtimoiy faollik pozitsiyasi shakllanadi, xususan, ularda tevarak-atrof, jamiyatdagi voqea-hodisalar, kishilarning xatti-harakatiga nisbatan aniq tasavvur, xulosalar mavjud bo'ladi.</p> <p>shaxsda e'tiqodning mavjudligi uni har qanday muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga va o'zini o'zi boshqara olishga, to'g'ri va tezkor qaror qabul qilishga o'rgatadi.</p> <p>o'z e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs ijtimoiy hayotdagi muammolarni mustaqil hal eta oladi va tezkor qaror qabul qiladi.</p> <p>e'tiqodi mustahkam shaxsda jamiyatdagi voqea-hodisalarga teran, tanqidiy va tahliliy munosabat shakllanadi, mavjud muammolarning yechimini topishda o'z fikrini yakdil himoya qila oladi.</p>
------------------------------------	---

Demak, bugungi shiddatkor zamonda ta'lim-tarbiya jarayonining yana bir muhim vazifasi – shaxs e'tiqodini shakllantirish bo'lmog'i lozim. Zero, e'tiqodi mustahkam shaxs o'z-o'zini aqliy, axloqiy, emotsional, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantira oladi. Eng muhimi, bunday shaxslar boshqalarga nisbatan o'zining ijodiy qobiliyatini erkin namoyon etishga, vatan oldidagi fuqarolik burchi va mehnat vazifalarini mustaqil bajarishga o'zida kuch topa oladi.

Shaxs e'tiqodi uning axloqiy qarashlari, jamiyatdagi o'zgarishlar, axborotlarga nisbatan munosabati, qarashi va ishonchidir. Shu boisdan shaxs e'tiqodini shakllantirishga, jamiyatning barcha qatlamlari, ta'lim-tarbiya maskanlari birdek mas'ul hisoblanadi. Buning uchun ular oldiga quyidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq:

Shaxs tarbiyasi va kamoloti bilan shug'ullanuvchi ta'lim-tarbiya maskanlari: oila, maktabgacha ta'lim, maktab, professional ta'lim, oliy ta'lim o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali yosh avlod e'tiqodini shakllantirish;

Ota-onalarga shaxs tarbiyasi haqida chuqur pedagogik-psixologik bilimlar berishni kuchaytirish orqali ularda farzand tarbiyasiga nisbatan mas'ullikni oshirish



va oilada farzand tarbiyasini samarali yo'lga qo'yishda milliy qadriyatlarga tayanish;

Har bir tarbiya maskani amalga oshiradigan tadbirlarida yosh avlod tarbiyasini vatan va millat taqdiri bilan bog'lay olishi, unga erishishi, buni o'zlarining vatan oldidagi oliy burchi deb bilishi;

Yoshlarda e'tiqod mustahkamligini rivojlantirish orqali axborotlashgan jamiyatda yashash, faoliyat yuritish hamda axborotlardan o'z bilimi va ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish ko'nikmasi va malakasini hosil qilish;

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga yordam berish, irodasi va e'tiqodini mustahkamlash.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi va ijtimoiy faollikka undovchi pedagogik tadbirlarni ommaviy shaklda tez-tez tashkil etish hamda ularda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni hosil qilish.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra shuni ta'kidlashimiz joizki, shaxs e'tiqodini shakllantirish murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Bu jarayonda, ayniqsa, otana va pedagoglar shaxs tarbiyasi, chunonchi uning e'tiqodini shakllantirishga alohida e'tibor bermoqliklari lozim. Zero, har bir e'tiqodli shaxs o'z hayotini yuksak maqsadlar asosida quradi va kasb-korining halol bo'lishiga, xalqi va vataniga sadoqat bilan xizmat qilishga, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishga intiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Бородулина С.Ю. Формирование у будущих учителей основ мастерства убеждения: дис. ... канд. пед. наук. М.: 1999. 183 с.
2. Жабборов А.М. Ўзбек мактаби ўқитувчисининг психологик ва этник хусусиятлари. Психол. фанл. докт. дисс. –Т.: 1999 й. – 317 б.
3. Орипова Н.Х. Вариатив моделлаштириш асосида бўлажак ўқитувчилар касбий педагогик эътиқодини шакллантириш назарияси. Монография. Қарши: Фан ва таълим, 2022. – 132 б.
4. Халиков А.А. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириш: пед. фан. докт.... дисс. –Т.: 2016. – 236 б.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada shaxs e'tiqodini shakllantirish borasidagi pedagogik tahlillarning mazmuni va mohiyati yoritilgan bo'lib, unda tarixiy taraqqiyot jarayonida shaxs e'tiqodini shakllantirish muammosi, uning o'ziga xos jihatlari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada shaxs e'tiqodining inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs e'tiqodini shakllantirish vazifalari keltirib o'tilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрывается содержание и сущность педагогического анализа формирования личных убеждений, а также раскрывается проблема формирования личных убеждений в процессе исторического развития, ее специфические аспекты. Также в статье говорится о роли и значении личных убеждений в жизни человека, задачах формирования личных убеждений в процессе обучения и воспитания.

#### SUMMARY

This article reveals the content and essence of the pedagogical analysis of the formation of personal beliefs, and also reveals the problem of the formation of personal beliefs in the process of historical development, its specific aspects. The article also talks about the role and significance of personal beliefs in a person's life, the tasks of forming personal beliefs in the process of training and education.